

O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Xudaynazarov Suhrob Ikrom o‘g‘li

TIFT Universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi,

Toshkent shahri, O‘zbekiston

e-mail: sukhrobkhudaynazarov@gmail.com

Mamlakatimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktablarida o‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta’minlash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi o‘quv jarayonida o‘quvchini izlanishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘qituvchi bilan birgalikda faol izlanishda bo‘ladilar. Maktab o‘quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlash darajasini o‘rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o‘quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi.

O‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish;
- o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashiga qo‘yilgan talablarni aniqlash;
- o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining o‘ziga xos pedagogik texnologiya jihatlarini aniqlash.

Maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati katta. Ushbu jarayonda o‘qituvchi ta’limiy o‘yinlardan o‘z o‘rnida foydalana olishi o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Ta’lim jarayonida ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar bilish materiallarini o‘zlashtirishga undovchi hordiq chiqartirishga

xizmat qiladigan usul va yo‘l emas, balki o‘yinlar juda katta evristik va ishon-tiruvchi quvvatga ega. O‘yinlar yagona yaxlit tarzda ko‘ringan hodisalarni bo‘lib-bo‘lib, qismlarga ajratib idrok qilish imkonini beradi. Shu asosda o‘rganilayotgan hodisalarni qiyoslash, o‘zaro farqlash va bir butun tarzda idrok etish imkonini beradi. O‘yinlarning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan oldindan ko‘ra olish, o‘quvchilarning o‘yinni tasavvur etish layoqati yaxlit hodisalar tizimini bilish darajasi bilan bog‘liq.

O‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda sayohat o‘yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Ular o‘quvchilarda tasavvur qilish vaziyatlari yordamida o‘tkaziladi. Barcha harakatlar va kechinmalar o‘yindagi xarakterlar yordamida aniqlanadi. Bu erda o‘quvchilar texnolog, iqtisodchi, muxandis ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladilar. O‘quvchilar bilish xarakteriga ega bo‘lgan turli-tuman materiallarni to‘playdilar.

Mazkur yozma hujjatlarda materiallarni ishchan bayon qilish ularning fikrlash jarayonlarini jadallashtiradi. O‘yinlarning o‘ziga xos jihatlari o‘quvchilar idrokining faollashuvi hamda o‘ziga xos faoliyat shaklining yaratilishi, ular orasidagi do‘stlik va hamkorlik muhitining vujudga kelishi bilan belgilanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilar tasavvurining amaliy faoliyatini kengaytiradi. Bunday faoliyat tashqi harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bevosita doimiy harakatga aylanadi. Shunga ko‘ra, o‘yin natijasida o‘quvchilarda tasavvurning ijodiy faoliyatga aylanish jarayoni amalga oshadi. Buning natijasida ular muayyan narsaning loyihasini tuzib, uni tashqi harakatlar yordamida amalga oshiradilar. Natijada o‘quvchilar orasida hamkorlikdagi o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar ko‘p mehnat qiladilar, mavzuga oid kitoblar, ma’lumotnomalar va xaritalarni tahlil qiladilar.

Mazkur ijodiy quvvatning asosini esa yangi narsalarni yaratish tashkil etadi. O‘quvchilarning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘ladi. O‘quv yoki badiiy adabiyotlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar ushbu kitoblarda bayon qilingan voqelikni o‘z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi. Ijodiy xayollar yaratuvchi xayollardan yangi namunalarni mustaqil yaratish bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchi faoliyatining o‘ziga xos natijalarida aks etadi. Inson shaxsining qimmatligi uning tarkibida tasavvur qilishning qanday yo‘llari mavjudligiga bog‘liq. Agar ijodiy tasavvur muayyan faoliyatda namoyon bo‘lsa, bu o‘quvchi shaxsining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Shaxs tasavvurini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bilish xarakteridagi ijodiy, syujetli-

rolli o‘yinlar shaxs taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki u o‘quvchilarning xayolot olami kengayishiga asos bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e’tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O‘quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo‘llaydi.

O‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o‘qitish metodlari samarali natijalarni beradi, ta’limda muammoli yondashish o‘quv dasturlarida, o‘qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarida ham o‘z aksini topadi. Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha uch bosqichli o‘qitish modeli da’vat qilish, idrok qilish va fikrlash bosqichlaridan iborat: da’vat bosqichida o‘quvchilarni darsga qiziqtirish, mavzu bo‘yicha yangi bilimlar to‘plash, axborotlar bilan tanishishlariga erishiladi. Idrok qilish pog‘onasida mavzu yuzasidan o‘z bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘laydi, taqqoslaydi va mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Mavzu o‘quvchilar tomonidan to‘liq idrok qilingandan so‘ng bevosita fikrlash jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda olingan yangi g‘oya va axborotlar o‘quvchilar tomonidan analiz, sintez qilinadi va matn mazmunini o‘z tushunchalari asosida so‘zlab beradilar.

Ta’lim jarayonida «Guruhlar bilan ishlash», «Munozara», «Muammoli o‘qitish», «Aqliy hujum» kabi metodlar, shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma ishlar, texnologik xaritalar tuzish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bu metodlar asosida olib borilgan darslar vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni o‘quvchiga etkazib beradi, shuning bilan birga bolani fikrlashga, chuqur mushohadaga undaydigan, butun diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qila oladigan muammoli vaziyatlar, bahs-tortishuvlarda to‘g‘ri xulosalar bilan vaziyatdan chiqib keta oladigan va olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog‘lab, umumlashtiradigan sharoitga ega bo‘ladi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilar faolligini oshiruvchi o‘qitish metodlaridan biri «Kichik guruhlarda ishlash» metodidir. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o‘rganishga, o‘rganganlarini o‘z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi.

Ushbu metodni quyidagicha qo‘llash mumkin:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi. O‘quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak (ta’limning bu metodida xavfsizlik texnikasi qoidasiga oid rangli, lavhali suratlar, mavzuga oid 5-6 daqiqalik ekranlashtirilgan hujjatli filmlar namoyish etilib, muammoli vaziyatlarda «Shu holatda men nima qila olar edim?», «Nima qilsam to‘g‘ri bo‘lardi?» deb o‘ziga savol beriladi).

3. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlariga 5-6 kishidan qilib bo‘linadi. Aniq ko‘rsatma, topshiriq bo‘yicha ishga kirishiladi.

4. O‘qituvchi har bir guruh faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, yo‘naltirib turadi.

5. Dars yakuni muhokama qilinadi, o‘quvchilar baholanadi, rag‘batlantiriladi.

O‘quvchilarga bilim berishda insonparvarlik tamoyiliga mos zamonaviy texnologiyalar, ya’ni izlanish, ishchan o‘yinlar, «Guruhli bahs» kabi metodlardan mohirlik bilan foydalanish o‘z samarasini beradi. O‘qituvchi evristik suhbat orqali o‘quvchilarni ijodiy mushohadaga chorlaydi, reproduktiv metod o‘qituvchining axboroti, bilimlarni o‘quvchilarga etkazishda muammoli vaziyatlar yaratib, ularni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda yuqori natija beradi. Bunda o‘quvchilar axborotlarni tahlil etishda induktiv va deduktiv metod, ya’ni oddiydan murakkabga va aksincha, murakkab vaziyatlardan oddiyga qarab boriladi.

«**Tanqidiy tafakkur**» uslubi o‘quvchiga qo‘yilgan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishiga asoslangan. Odatda bunday zarurat mulohaza xarakteriga ega masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi. Ushbu uslub o‘qituvchiga o‘quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko‘nikmalari, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o‘z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

«Tanqidiy tafakkur»ni o‘tkazish uslubi.

1. O‘quvchilar oldiga muammoli topshiriq qo‘yiladi va quyidagi savollar beriladi: «Nima deb o‘ylaysiz?», «Fikringiz qanday?», «Sizningcha qanday?» Bu kabi savollar o‘quvchi o‘z nuqtai nazarini shakllantirishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. O‘quvchiga o‘z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O‘quvchi o‘z fikrini asoslaydi, bunda uning qarashini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin: «Nega bunday deb o‘ylaysiz?», «Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?»

4. O‘qituvchi ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo‘lgan ta’lim oluvchilarga so‘zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: Kim aytilgan fikrni ma’qullamaydi, nega?

5. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda har xil fikrlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: «Nega boshqalarning nuqtai nazarini ma’qullamaysiz?», «O‘z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?»

Firkimizcha, muammoni topshiriq, masala bo‘yicha qabul qilingan qarorga o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtai nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin: «Sizningcha, kimning nuqtai nazari eng maqbul?», «Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo‘l bilan chiqish ma’qulroq?»

O‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va usullarni tanlab, ta’lim jarayonida qo‘llay olishi, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqori sinfni bitiruvchilari o‘quv materiallarini muammoli tarzda o‘rganish o‘quvchilarning ta’lim olishdagi faolligini oshiradi, mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Kasb tanlashga yo‘naltirilgan o‘yinlar ularning kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati. // J. Maktab va hayot. – 2004. – № 1. – B. 18-20.

2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013 y. 8 b.t.

3. Qo‘ysinov O. A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda mustaqil amaliy faoliyat ahamiyati. O‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo‘yicha kompetentligi: muammo va echimlar. Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari miqyosida ilmiy-amaliy anjumani materiallar. – Toshkent: TDPU. 2012 yil. 246-249 betlar.

4. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-260 b.

Internet resurslari:

www.dr.rtm.uz, www.texnologiya.zn.uz, www.eduportal.uz, www.giu.uz

